

«Super VIP 30 kunga chegirma» aksiyasi qoidalari

2024 yil 11 martdagি tahrir

“Super VIP 30 kunga chegirma” aksiyasi (keyingi o’rinlarda Aksiya deb yuritiladi) “Humans” MChJ tomonidan o’tkaziladi, manzil: 100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2-uy, STIR 306624856 (keyingi o’rinlarda “Humans” deb yuritiladi) va noaniq doiradagi shaxslarga qaratilgan

1. Aksiya haqida ma'lumot
 - 1.1. Ushbu Qoidalarda katta harflar bilan yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarning ma'nosi, agar ushbu Qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Provayder tomonidan tasdiqlangan va www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida, shuningdek, Tariflar tavsifida keltirilgan.
 - 1.2. Aksiya ishtirokchilari - rasmiy dam olish kunlarida aksiya boshlangan sanadan so'ng Humans savdo nuqtalarida Aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qilib, Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomaga tuzgan yakka tartibdagi mijozlar bo'lib, ular shartnomaga tuzilgandan keyin 30 kunlik hisob-kitob davri bilan Super VIP paketiga obuna bo'lganlar.
 - 1.3. Aksiya o’tkaziladigan hudud: O’zbekiston Respublikasi.
 - 1.4. Aksiya muddati: 11.03.2024dan bekor qilingunga qadar muddatsiz.
2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya muddati davomida Aksiya Ishtirokchisi O'zbekiston Respublikasi hududida rasmiy dam olish va bayram kunlarida Humans savdo nuqtalarida aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma tuzayotganda 30 kunlik hisob-kitob muddati bilan Super VIP to'plamni faollashtirishi mumkin. Bir hisob-kitob davri uchun - asosiy 45 000 UZS o'rniga, - 35 000 UZS (keyingi o'rnlarda aksiya paketi deb yuritiladi).

2.2. Illova orqali aksiya paketini ulash mumkin emas. Shuningdek, SIM-kartani yetkazib berish orqali ushbu aksiya paketiga buyurtma berish ham mumkin emas.

2.3. Aksiya bekor qilinmaguncha yoki o'zgartirilgunga qadar yoki Super VIP to'plami 30 kunlik hisob-kitob muddati tugaguncha ulangan aksiya paketini uzaytirish 2.1-bandda ko'rsatilgan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

2.4. Ushbu Aksiya qoidalari bilan tartibga solinmagan boshqa barcha jihatlarda, aksiya paketiga hisob-kitob muddati 30 kun bo'lgan Super VIP paketga o'xhash Tariflar qoidalari qo'llaniladi.

3. Yakuniy qoidalalar

3.1. Ushbu Qoidalalar Humans saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish yoki bu haqda Saytda tegishli xabarni joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlarning Saytda e'lon qilingan sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab qoidalalar o'zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Aksiya ishtirokchisi tomonidan Super VIP paketini Aksiya davrida faollashtirish jismoniy shaxslarga qaratilgan taklif bo'lgan ushbu Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.